QASHQADARYO VILOYATI KO‘KDALA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 10-oktabr | 313-4-224-Q/24 | Ko‘kdala tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2025-yilda ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qoʻyish toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi va Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qoʻyish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomning 10-bandi hamda Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6-va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Belgilanishi kerak boʻlgan ish oʻrinlarining eng kam sonini va ularga qoʻyiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tumandagi mulkchilik shaklidan qatʼiy nazar xodimlarning roʻyxatdagi oʻrtacha soni 20 nafardan koʻpni tashkil etadigan korxona, tashkilot va muassasalarda xodimlar oʻrtacha sonining 10 foiz miqdorigacha (shu jumladan, nogironlar uchun 3 foiz) jami 67 ta kvota ish oʻrinlari belgilash 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qoʻyish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomning 3-bandiga muvofiq korxona va tashkilotlarda joriy yilda ishga joylashtirib boʻlingan shaxslar ish oʻrinlari 2025-yil uchun band qilib qoʻyiladigan ish oʻrinlari sonini belgilashda hisobga olinsin. Shu jumladan:

a) oʻn toʻrt yoshgacha bolalari boʻlgan va nogiron bolalari boʻlgan yolgʻiz va koʻp bolali ota-onalar uchun 32,8 foiz (22 kishi);

b) umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy taʼlim muassasalarining davlat grantlari boʻyicha taʼlim olgan bitiruvchilari 50,7 foiz (34 kishi);

v) safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni oʻtagan va Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan boʻshatilgan shaxslar 3 foiz (2 kishi);

g) nogironlar uchun 4,5 foiz (3 kishi);

d) pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 3 foiz (2 kishi);

y) jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga koʻra tibbiy tusdagi majburlov choralari qoʻllanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 3 foiz (2 kishi).

J) Oilaviy (maishiy) zoʻravonlik natijasida jabrlangan shaxslar uchun 3 foiz (2 kishi).

4. Ish beruvchilar ushbu toifa shaxslar uchun ish oʻrinlari xodimlar tomonidan oʻzlarining mehnat majburiyatlarini toʻsiqlarsiz bajarishini taʼminlaydigan sanitariya-gigiyena normalariga va mehnat sharoitlariga muvofiq boʻlishini taʼminlasin.

5. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qoʻyiladigan ish oʻrinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi zaxiraga qoʻyilishi va bundan yil boshlangunga qadar tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish bo'limi xabardor qilinishini taʼminlansin.

6. Muhtojlar uchun ish oʻrinlarining qolgan qismini zaxiraga qoʻyish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida taʼminlansin va bu haqda tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish bo'limi birinchi chorak tamom boʻlganidan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilinsin.

7. Ushbu qarorda nogironlar uchun zaxiraga qoʻyiladigan ish oʻrinlarining belgilangan sonidan ortiqcha ish oʻrni tashkil etgan tashkilotlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozlar belgilanadi.

8. Muhtojlar uchun ish oʻrinlarini zaxiraga qoʻyish boʻyicha tuman hokimining qarorini bajarmagan korxona, tashkilot va muassasalarning mansabdor shaxslariga ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maʼmuriy javobgarlik belgilangan.

9. Barcha korxona, tashkilot va muassasalar har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kuniga qadar tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish bo'limiga 3-ilovaga muvofiq shakl boʻyicha muhtojlarni ishga joylashtirish toʻgʻrisida maʼlumot taqdim etsin.

10. Ish oʻrinlarini band qilib qoʻyish sonidan ortiqcha ish oʻrinlari tashkil etgan korxona va tashkilotlar uchun Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2019-yil 10-maydagi “Oʻzbekiston Respublikasi

Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi toʻgʻrisidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B-sonli buyrugʻiga asosan belgilangan tartibda kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslar uchun har bir xodimga 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida subsidiya toʻlab berilishi belgilab qoʻyilsin.

11. Tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi bir hafta muddatda ushbu qarorni ilovada koʻrsatilgan tashkilot rahbarlari eʼtiboriga yetkazsin va mazkur qarorning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

12. Tuman hokimining 2023-yil 11-dekabrdagi 244-4-224-Q/23-sonli qarori 2024-yil 31-dekabrdan oʻz kuchini yoʻqotgan, deb hisoblansin.

13. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi oʻrinbosari E.Boboqulov zimmasiga yuklatilsin.

14. Mazkur qaror 2025 yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **X.Djurayev**

Ko‘kdala tuman hokimining
2024-yil 10-oktabrdagi
313-4-224-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtojlarning soni oʻzgarishiga qarab ular uchun belgilanadigan ish oʻrinlarining eng kam soni va ularga qoʻyiladigan talablarni aniqlash uchun maxsus komissiyasi

T/r	F. I. Sh	Lavozim
1	E.Boboqulov	tuman hokimining birinchi oʻrinbosari, **Ishchi komissiya raisi**
A ʼ Z O L A R I		
2	O.Tilovov	tuman Kambag’allikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish bo’limi boshlig’i, **Ishchi komissiya raisi kotibi**
3	Z.Tursunov	Ko'kdala tuman IIB boshligʻi
4	G'Toshbekov	Ko'kdala tuman mudofaa ishlari boʻlimi boshligʻi
5	S.Salayev	Tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi rahbari

Ko‘kdala tuman hokimining
2024-yil 10-oktabrdagi
313-4-224-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Ko'kdala tumani bo‘yicha 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlari to‘g‘risida ma’lumot

T/r	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro‘yxati (korxona va tashkilotlarning nomi)	Korxona va tashkilotlarning INN raqami	Shtat bo‘yicha xodimlarning umumiy soni (shtat birlik)	Jami band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlari soni	Shu jumladan:								
					14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Umumiy o‘rta o‘rta maxsus, kasb hunar ta’limi muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o‘rinlari son	Safarbarlik chaqiruv zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari son	Odam savdosi qurbonlari uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlangan-lar
1	23-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203462984	75	2	1	1						
2	16-umumiy o'rta ta'lim maktabi	308851154	43	2	2							
3	17-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203542710	45	2	1	1						
4	18-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203542648	62	2	1	1						
5	19-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203542631	54	2	1	1						
6	20-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203547893	46	2		1						
7	Qumdaryo davlat o‘rmon xo‘jaligi	306462806	82	2	1	1						

8	22-umumiy o'rta ta'lim maktabi	308851368	46	2		2						
9	23-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203462984	63	2	1							1
10	24-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203554173	59	2	1	1						
11	Ko'kdala tuman tibbiyot birlashmasi	309590899	1512	30	8	18		2	1			1
12	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	309573024	63	2	1			1				
13	77-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203260549	141	2	1	1						
14	Bolalar va o'smirlar sport maktabi	206918373	104	2		2						
15	Barkamol avlob bolalar maktabi	309627034	55	2	1	1						
16	"SOMAX TXBEST"MCHJ	308965874	152	3	1	1	1					
17	Ko'kdala tuman Xokumligi Obodonlashtirish boshqarmasi	309577256	292	5		2	1		1	1		
18	Ilg'or voha fermer xo'jaligi	305060033	27	1						1		
Tuman bo'yicha jami:			**2821**	**67**	**22**	**34**	**2**	**3**	**2**	**2**		**2**